



## STEAM TA'LIMINI TATBIQ ETISH ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH METODIKASI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843850>

**Berdiyev Doston Abduvoitovich**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*"Tasviriy san'at va amaliy bezak"*

*yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada mamlakatimizda jahon tajribasini o'rgangan holda dolzarb bo'layotgan STEAM innovatsion ta'limini tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasiga yanada singdirish masalalari ko'rib chiqilgan. Sifatli ta'limni tashkil etishdek kun mavzusi bo'layotgan jarayonlarda, ta'lim tizimiga yangi g'oyalarni kiritish, tasviriy san'atni o'qitishda yuqori pedagogik texnologiyalarni singdirish va shu orqali STEAM interaktiv ta'lim bilan boyitilishi bilan rivojlanishning yangi sharoitida muammolarni samarali hal qilinishi, kelajakda davlatimiz taqdirini hal qiladigan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi juda muhim ekanligi ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *metodologiya, dizayn, interaktiv, innovatsiya, integratsiya, interfaol metodlar, robototexnika, kasbiy faoliyat, ustoz-shogird, virtuaktexnologik ma'ruza, STREAM, STEM, noverbal muloqot.*

Zamonaviy ta'limda o'z oldiga maqsad qo'yish va uning yechimini topish kabi vaziyatlarda zamonaviy yoshlarga mustaqil qarorlar qabul qila olish ko'nikmalariga ega bo'lish talablari qo'yilmoqda. Shuning uchun ta'lim tizimida har bir yoshdagi tarbiyalanuvchilar, o'quvchilar va talabalarning shaxsiy faolligini tarbiyalash va ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish, darsdan tashqari faoliyatini mazmunli tashkillashtirish muhim vazifa bo'lib turibdi. Ta'limni modernizatsiyalash yo'nalishining zamonaviy bosqichida ro'y berayotgan innovatsion jarayon bilan hamohang ravishda o'sib kelayotgan avlodagi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan har xil ta'lim g'oyalari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda pedagogik nazariya va amaliyotda qo'llash, uning samaradorligini oshirishni talab qiladi. Bugungi kunda ta'limga e'tibor davlatimiz oldiga qo'yan eng asosiy maqsadlardan biris hisoblanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni buni tasdiqlaydi. Bunda **Quyidagilar:**

**a)** O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda quyidagilar nazarda tutiladi: - oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov



darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;  
- oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish; - xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;  
- oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;  
- oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek, respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

**b)** O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.  
- Konsepsiya tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida tasdiqlanadigan "Yo'l xaritasi" orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.  
- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda  
- O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta'lim kengashini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi.

Bundan ko'rinadiki, davlat qanchalik to'g'ri va aniq maqsadlarga qaratilgan ta'lim tizimini yo'lga qo'ysa uning dunyo hamjamiyatida yanada nufuzi oshadi. Hozirgi paytda dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotgan STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanib kelmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va o'quv-amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, beshta fanni yagona ta'lim tizimi tarkibida integratsiyalashuviga asoslangan. Bu orqali oliy o'quv yurtidan tortib umumta'lim maktablari «STEAM» ta'limini tasviriy san'at yo'nalishiga tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish mumkin.

Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish uchun STEAM ta'limini tatbiq etishning asosiy maqsad va rivojlanish yo'nalishlari S –science- tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar, T – technology-texnologiya, E –engineering- muhandislik grafikasi, A – art-san'at, M – math-matematika yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab oladi. Professor-o'qituvchilar rahbarligi va nazoratida tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar, texnologiya, muhandislik grafikasi, matematika va tasviriy san'at yo'nalishi talabalari bilan birgalikda "Aqlli uylar", kompyuterda harakatlanuvchi



robotlarning eskizini bajarish, uni materialda yasash va badiiy ishlov berish kabi ishlarni amalga oshirishni maqsad qilib olgan. Zero yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: *"Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"*<sup>20</sup> degan fikrlari bunga asos bo'la oladi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori: Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi. Yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "besh muhim tashabbus"ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari — "Prezident maktablari", "Temurbeklar maktabi", "Ijod maktablari" bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.<sup>21</sup> Yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2023-yil mamlakatimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" deb e'lon qilindi.

Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish uchun STEAM ta'limini tatbiq etishdagi ko'zga tashlanadigan **muammolar** quyidagilardan iborat:

- steam tizimini ta'lim jarayonlarida rivojlantirishdagi aniq maqsadning yo'qligi;
- shu maqsadning mexanizmi ishlab chiqilmaganligi;

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi  
2017-12-23

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi 23-son qarori



- tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi adabiyotlarida steam bilan bog'liq o'quv dasturlarining yo'qligi;

- universitetdagi yangi innovatsiya va texnologiyalar yaratishga qiziqadigan iqtidorli talabalarni ratsionalizatorlik hamda ixtirochilikka yo'naltiradigan tizimning yo'qligi;

### **Yechim**

- iqtidorli talabalarni kashf etish, ularni qamrab olish uchun turli xil loyihalar, innovatsion yarmarkalar, tanlovlar, ratsionalizatorlar va ixtirochilarning mahorat darklarini tashkil etish;

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini yo'lga qo'yish, ularga sharoit yaratib berish va rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, universitetda san'at bilan boyigan texnopark tashkil etish;

- tasviriy san'at yo'nalishidagi talabalarni fanlar integratsiyasi bilan amal qiladigan amaliyotning joriy etilishi.

**Iqtidorli yoshlarni aniqlash usuli:** (qiziqishlari, jamoa bilan birgalikda ishlashi, bugungi va ertangi rejalari, orzu-istaklari va maqsadi)

Tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik grafikasi, san'at hamda matematika yo'nalishlarida tahsil oladigan, innovatsiyaga qiziqadigan talabalarni aniqlash;

Har sohada kreativ fikrlaydigan va keng dunyoqarashga ega bo'lgan talabalarni aniqlash;

### **Ko'zlangan natija**

- talabalarda kreativ fikrlash boyiydi, yaratuvchanlik hamda ijodkorlik qobiliyatlari shakllanishi bilan bir qatorda tajriba va malaka oshiriladi;

- yoshlar tomonidan yaratilgan yoki taqdim etilgan suniy intellekt, robotatexnika, 3D modellashtirish, geologiya, matematika, fizika, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, talim, sog'liqni saqlash umuman olganda jamiyatga foydasi tegadigan g'oya, tashabbus, amaliy va innovatsion ishlanmalarni keng ommaga ko'rsatiladi;

- aynan steam orqali yoshlarda: ijodkorlik, ishonch, muammoni hal qilish, sabr, diqqatni jamlash, noverbal muloqot, hamkorlik, fidokorlik kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi;

- ilm va san'at ahlini birlashtirish asnosida ulkan yangiliklar yaratish mumkinligini anglash imkoniyati paydo bo'ladi;

- qo'shimcha yo'nalishlarga jalb etish hisobiga ta'lim tizimida bitiruvchilarning kasbiy raqobatbardoshligiga erishish;

- zamonaviy talablar asosida tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mazmuniga yangi innovatsiyalarni tatbiq etish, mutaxassislarining professional imkoniyatlarini kengaytirish;

- tasviriy san'atni o'qitish metodikasini takomillashtirish, uning boshqa fanlar bilan integratsiyasini mustahkamlash;



- tasviriy san'at o'qitish metodikasi mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtualtexnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, ma'ruza-konferensiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma'ruza, online ma'ruza) trening, videotrening, internet konferensiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi;

- o'qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi.

- tasviriy va amaliy san'at hamda pedagogika sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida qo'shimcha yo'nalishlar orqali talabalarning kasbiy faoliyati ko'lemi kengaytiriladi.

### **Umumiy xulosalar va tafsiyalar**

STEAM - yondashuvi "texnik" va eskirgan tushunchalarni yo'q qiladigan "gumanitar" tafakkur. STEAMning asl maqsadi ta'limga qaratilgan bo'lib, ilm-fan sohasida interaktiv tizimni rivojlantirishdir. Investitsiyalar ta'limda kompyuterlar bilan cheklanib qolmay, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturining infratuzilmasi o'z ichiga oladi. STEAM ta'lim konsepsiyasi yangi emas, ta'lim muassasalari ushbu texnologiyaga o'z yondashuvlarini o'zgartiradi. Texnologiyaga asoslangan o'quv reja, o'rganish ko'nikmalariga e'tibor qaratadi, tafakkurini rivojlantirish, tez o'zgaruvchan dunyo va kelajakdagi ish jarayonlariga tayyorlash. Eski STEAM ta'lim modeli talabalarni texnologiya bilan ishlashga tayyorlagan. Endi u hayotimiz va ishimizning ajralmas qismga aylandi. "Agar biz bugun bolalarga kechagidek ta'lim bersak, demak ularning ertangi kunini o'g'iraymiz" – degan edi amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyun. Axborotlashtirishning zamonaviy sur'ati, keng tarqalgan raqamlashtirilgan ta'lim va tizimlari ta'limga yondashuvlarni o'zgartiradi. Quyidagi STEAMlar mavjud (STEM, STEAM, STREAM, STEM) mamlakatlar tajribasini tahlil qilganda, STEAM dasturlaridan foydalanishda shunday degan xulosaga kelindi: ushbu ta'lim bilim jihatidan juda qiziqarli va foydalidir, kelajakdagi ko'nikmalarni rivojlantirishda (muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik) ahamiyati katta.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san'at o'quv jarayonini modernizatsiyalash, tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish, rassom-pedagog bo'ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'z sohasiga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oliy ta'limda tasviriy san'at o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy



etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta'limning axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san'at yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, oliy ta'lim muassasalarida rassom-pedagoglarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki oliy ta'lim tizimini xususan, tasviriy san'at o'qitish metodikasini modernizatsiyalash o'quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son qarori;
2. Султанов Х.Э., Бердиев Д.А. Санъат дўстликни мустақкамловчи омил // "Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар" халқаро илмий амалий анжуман илмий ишлар тўплами./ II том. Чирчиқ 2019. 443-444 б.
3. Султанов Х.Э., Бойназарова Н.Х., Бердиев Д.А., Мирсоатова Л.Ў., Маматкаримова М.Т. Кластер ҳамкорлигида ижодий фаолиятни ташкил этишнинг ўқувчилар маънавий-ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти // "Yangi O'zbekistonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari /may 1-qism CHIRCHIQ – 2022. 613-620 б.
4. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitishda kelajak ta'limi steam interaktiv ta'limini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022/ Volume 3 Issue 2 Pages: 687-690
5. Бердиев Достон Абдувоитович, Султанов Хайтбой Эралиевич Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида стеам таълимини татбиқ этиш// научный журнал Интернаука/ часть 7. Москва, 2022 № 15(238) - ст 13-14
6. Бердиев Достон Абдувоитович Кластер ҳамкорлигида ташкил этилган тасвирий санъат тўғарақларнинг таълим-тарбия соҳасидаги аҳамияти // INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 19–24 p.
7. Султанов Хайтбой Эралиевич, Алимова Нодира Шавкат қизи Zamonaviy ta'limda tasviriy san'atni o'qitish muammolari// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 13–18 p.



8. Имоматова У. М. Композицияда эскиз бажариш орқали бадиий тасаввурни ошириш //International scientific research conference. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 13-17.

9. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). TASVIRIY SAN'ATNING FANLARARO ALOQALAR TIZIMIDAGI O'RNI. *PEDAGOGS Jurnali*, 31(1), 142–148. Retrieved from <https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/3669>

10. Мирсоатова Лайло Ўткир қизи Тасвирий санъатни ўқитишда кластер ҳамкорлигини йўлга қўйишнинг аҳамияти (Муסיқа ва санъат мактаблари мисолида)// BELARUS, International scientific-online conference, Part 12, March 19th, p:24-27

11. Abduvoitovich B. D. TASVIRIY SAN'ATDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 54-58.